

SHARTNOMA TUSHUNCHASI VA UNING BOZOR MUNOSABATLARI SHAROITIDAGI AHAMIYATI

Sobirjonova Komila Sherzod qizi

Toshkent viloyati yuridik texnikum o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shartnoma tushunchasi, shartnomaning tarkibiy elementlari hamda shartnomaning hozirgi kunda bozor munosabatlaridagi ahamiyati tahlil qilingan, jismoniy hamda yuridik shaxslarning shartnoma tuzishdagi ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilingan

Kalit so'zlar: oferta, aksept, shartnoma, shartnoma taraflari, shartnoma shartlari

Iqtisodiy munosabatlar mulkchilikning turli shakllari, shu jumladan, xususiy mulk shakli negiziga qurilgan bo'lib, tovar-pul munosabatlari tizimida boshqaruvning demokratik uslublari qo'llaniladigan jamiyatda shartnoma o'z tabiati, mazmuni va ko'zlagan maqsadiga ko'ra uning teng huquqli ishtirokchilari o'rtasida qiymat, ekvivalentlilik va haq evaziga amalga oshirishga doir munosabatlarning yuridik tartibiga solish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Shartnoma huquqiy tartibga solish vositalari ichida eng universal, demokratik vosita hisoblanadi. Shartnomalar orqali huquqiy munosabat tartibga solinganda, undagi barcha ishtirokchilarning manfaati eng ko'p darajada ta'minlangan bo'ladi. Odatda har qanday shartnoma ixtiyoriylik asosda vujudga keladi va shartnomalarda huquq va majburiyatlarni belgilashda mulkiy manfaatlar va shaxsiy ne'matlarni taqsimlashda o'ziga xos muvozanat, uyg'unlik o'z mujassamini topadi.

Garchi shartnomalar qadim-qadimdan fuqarolik huquqida, oila huquqida, mehnat huquqida va xalqaro huquqda qo'llanilib kelinayotgan bo'lsa ham, bugungi kunda undan huquqni boshqa tarmoqlarida ham foydaydalanish holatlari kuzatilmoqda. Jumladan, jinoyat huquqida yarashuv, jinoyat protsessida sud bilan guvoh o'rtasidagi, sud bilan sudlanuvchi o'rtasidagi kelishuvlar buni yaqqol misoli hisoblanadi. FKning 8-moddasi talabiga ko'ra, shartnomalar taraflar o'rtasida fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asoslaridan biridir. Shubhasiz, bugungi kunda shartnomalarga alohida ahamiyat berilmoqda.

Chunki shartnomalarda boshqa yuridik faktlarga qaraganda, taraflarning erki-irodasi to'la ifodalanadi. Shartnomaga kirishuvchi shaxslar kim bilan, qancha, qachon shartnoma tuzishni u tufayli yetkazib berilishi lozim bo'lgan pul, tovar, ashyolarni qaysi muddatlarda, qanday transportlarda yetkazilishini, to'lov amaldagi qanday shakllarda bo'lishini mutlaqo o'zlari, mustaqil hal qiladilar.

Ular shartnomalar tuzishda erkindirlar, shartnoma tuzishga majburlashga yo'l qo'yilmaydi. Shartnoma erkinligi tamoyilining mazmuni FKning 354-moddasida

mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Buning ma'nosi shundan iboratki, hech kim ularni shartnoma tuzishga majbur qila olmaydi.

Shartnoma fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z xohishiga ko'ra, o'z erki irodasi bilan tuziladi. Albatta, ularni shartnoma tuzishga undovchi sabablar (motiv) turlicha bo'lishi mumkin: o'z ehtiyojlarini qanoatlantirish, foyda olishga intilish, ta'sis hujjatlarida belgilab qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish va h.k. Ba'zan, boshqa uchinchi shaxslar shartnoma tuzish haqida talab, taklif yoxud iltimos qilishlari mumkin. Biroq har qanday holda ham shartnoma tuzish haqidagi qaror fuqaro yoki yuridik shaxs tomonidan mustaqil, o'z erki-irodasi asosida qabul qilinadi. Shartnoma tuzish vaqtida fuqaro (yuridik shaxs rahbari, vakili) fikri tiniq, ruhiy holati normal, o'zini o'zi idora qila oladigan, o'z harakatlarining oqibatlarini ko'ra oladigan holda bo'lishi lozim.

Agar subyektning ichki ruhiy holatida, ongida ro'y bergan buzilishlar, tashqi ta'sirlar tufayli shartnoma tuzishga majbur etilsa, unday shartnoma haqiqiy hisoblanmaydi. Bu shartnomalar erkinligini real ta'minlashning o'ziga xos yuridik kafolati hisoblanadi deb aytish mumkin.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, shartnomalar tuzishning erkinligi, undan taraflarning o'zaro manfaatdorligi, shartnomada shartnoma intizomining mustahkamligi (ya'ni, xalq tili bilan aytganda, "shartnomaning puldan qimmatligi"), unda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan javobgarlikdan ko'ra, mulkiy javobgarlikning keng belgilanishi xo'jalik yurituvchi subyektlarni tobora ushbu huquqiy vositadan (shartnomadan) to'laroq foydalanishga jalb qilmoqda. Shartnomalar to'lov intizomini kuchaytiradi, taraflarning faoliyatini har tomonlama rag'batlantiradi, o'z navbatida taraflarning mas'uliyatini oshiradi, xo'jalikning debitorlik va kreditorlik holatini yaxshilaydi, pirovardida taraflarning barqarorligini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda tovarlar, xizmatlar va kapitallarning mo'l-ko'lligiga garovdir.

Shartnoma erkinligi tamoyili nafaqat fuqarolik huquqini, balki milliy huquq tizimini yetakchi tamoyillaridan biri deb aytish mumkin. Shartnoma erkinligi tamoyili asosida quyidagi qoidalar yotadi.

Masalan, avtotransport egalari qonunga ko'ra o'zlarining fuqarolik – huquqiy javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasini tuzishlari shart.

-fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar va shartnoma tuzishga hech kim majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi, shartnoma tuzish burchi FK (358-modda), boshqa qonunda (Avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risidagi qonun, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risidagi qonun) yoki olingan majburiyatda (FK 361-moddasi) nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda 1998-yil 29-avgustda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" Qonun qabul qilindi, shartnomalarni tuzish va bajarish monitoringi yuritilmoqda. Bular, o'z navbatida, tuzilgan shartnomalarni tezroq va realroq ishlashiga xizmat qilmoqda. Shartnoma ikki yoki undan ortiq shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvidir. Shartnoma atamasi uch ma'noda: yuridik fakt; biror-bir yuridik faktga asoslangan, moddiy manfaatlar to'g'risidagi huquqiy munosabat; shaxslar (fuqarolar va tashkilotlar) o'zaro kelishuvini aks ettiruvchi, ifodalovchi hujjat ma'nosida ishlatiladi.

Bu o'rinda u o'zining birinchi ma'nosi–yuridik fakt sifatida ko'riladi va o'rganiladi. Yuridik harakatlar, o'z navbatida huquq yo'l qo'ygan harakatlar sifatida bir tomonlama va ikki tomonlama bitimlar (shartnomalar) dan iboratligi ko'rsatilgan edi. Ikki tomonlama bitimlarning hammasi (oldi-sotdi, ijara, qarz va boshqalar) shartnoma hisoblanadi. Shartnoma tushunchasidagi asosiy belgi va shart – taraflarning muayyan natijaga erishishga qaratilgan o'zaro kelishuvlaridir.

Taraflarning har biri tomonidan shartnoma bo'yicha olinadigan huquq va burchlar har xil bo'lsa ham, ular oqibatida yagona huquqiy natija beradi, masalan, biror-bir narsaga nisbatan egalik huquqi o'tkaziladi yoki biror-bir ashyodan foydalanish huquqi olinadi va h.k.

Taraflarning kelishuvlari natijasida erishiladigan bevosita aniq natijani mazkur shartnoma tuzishda taraflarning o'z oldilariga qo'yilgan asosiy maqsaddan ajratish kerak. Masalan, metallurgiya zavodi mashinasozlik zavodi bilan muayyan miqdordagi, shart qilingan nav va markali po'latni yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzadi. Bu yerda taraflar o'zaro kelishuvlarining bevosita natijasi metallurgiya zavodi tomonidan mashinasozlik zavodiga shartnoma bilan belgilangan muddatlarda va muayyan shartlarga binoan ma'lum miqdorda po'lat yetkazib berish hisoblanadi.

Shartnomaning maqsadi esa har ikki taraf uchun umumiy bo'lib, taraflarning har qaysisi shartnomaning barcha ko'rsatkichlarini bajarishdan, pirovardida foyda (daromad) olishdan iborat bo'ladi. Binobarin, har ikki taraf ham shartnomani lozim darajada bajarishni o'zlarining burchlari deb biladilar.

Fuqarolik-huquqiy shartnoma, asosan, mulkiy munosabatlarni rasmiylashtirish uchun tuziladi. Ba'zi hollarda shartnoma shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarni ham rasmiylashtiradi. Bu adabiyot, fan va san'at asarlarini yaratish sohasidagi ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar, chunonchi, nashriyot shartnomasi, sahna asari, kinosstenariyalar va boshqa shartnomalar uchun xarakterlidir. Bunday shartnomalar taraflarning mulkiy huquqlari va burchlarinigina, chunonchi, mualliflik haqi to'g'risidagi shartlarni, muddatlarni buzganlik uchun javobgarliknigina belgilamay, balki shaxsiynomulkiy huquqlarni ham, masalan, muallif o'z asarida

nomini ko'rsatib yoki anonim tarzda chiqarishi, asari matniga o'zgartirish kiritishga ruxsat berish-bermaslik singari nomulkiy huquqlarni ham belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. 2-qism. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2019. 684-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 2-jild. (ikkinchi qism). Adliya vazirligi. –Toshkent: Baktria Press, 2013. 912-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 3-jild. (ikkinchi qism). Adliya vazirligi. –Toshkent: Baktria Press, 2013. 800-b.
4. Imomov N.F. Yuridik shaxs mohiyatining fuqarolik-huquqiy talqini (nazariy masalalar). Monografiya. –Toshkent: TDYU, 2017. 156-b.
5. Oqyulov O., Ro'zinazarov Sh.N., Imomov N.F. Fuqarolik qonunchiligining rivojlanishi va takomillashtirish istiqbollari (axborotliloy material). –Toshkent: TDYI, 2015. 111-b.